



ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVNING TA'LIM SIFATIDAGI TA'SIRI VA AHAMIYATLILIGI

Zuhra ASHIRBOYEVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tezisda ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatliligi va uning qay darajada o'quv jarayonida samaradorlikni oshirishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bugungi kundagi yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalar, raqamli texnologiyadan foydalanishning o'qituvchi va o'rganuvchi uchun afzalliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ta'lim sifati, pedagogik yondashuv, raqamli texnologiya, motivatsiya

Zamonaviy dunyodagi zamonaviy ta'lim va uning zamonaviy yondashuvlari talablari ancha ortib bormoqda. Chunki, zamonaviy pedagogic yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, o'quvchining mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi (UNESCO, 2015). Jamiyatda axborot texnologiyalari ommalashayotgan bir paytda an'anaviy o'qitish usullari zamonaviy ehtiyojlarini to'laqonli qondira olmayapti va shu bois, innovatsion va yangicha usullarda o'qitishni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'lib boryapti. Bugungi ta'lim jarayonlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan asosiysi sifatida talaba markazli ta'lim metodikasi hisoblanadi. O'quv jarayonida bu metodikaning asosiy maqsadi o'rganuvchini faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, talaba har qanday holatdayam dars jarayonida faol ishtirok etadi. Shuningdek, bu yondashuvning ikkinchi asosiy maqsadi talabada mavzu haqida erkin fikrlash, muammoli vaziyatni tezroq hal qilish, tanqidiy yondashuv kabi ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu pedagogik metodikaning rivojlanayotganiga asosiy sabablardan bir o'rganuvchilarning o'z xohishlariga ko'ra darsda faollik pastligi va ulardagi qiziqishlar har xilligi bo'lmoqda. Ammo, bu metodika butun bir o'quv jarayonini o'ziga qamrab olishi ba'zi holatlarda o'rganuvchilar o'rtasida noto'g'ri ma'lumotlar va xatoliklar almashunuviga sabab bo'lishi mumkin. Bu metodika o'qituvchi nazorati ostida amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonida yanada samarali va qiziqarli qiladi. Onlayn platformalar, multimedia vositalari va resurslar, masofaviy ta'lim elementlari o'rganuvchining o'zlashtirish darajasini oshirib, individual yondashuvni ta'minlaydi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'rganuvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirib, ta'lim jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Raqamli pedagogika ta'lim jarayoni individuallashtirish va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi (Bates, 2019). An'anaviy dars



jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar o'rganuvchining qiziqishi va uning fan haqidagi ma'lumotlarini yanada ortishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rganuvchining faolligini ta'minlovchi va o'qitish texnologiyalarida o'rganuvchi o'rtasida va uning ta'limdagi ehtiyojlarini qoniqtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik ta'lim yondashuvlarining 21-asr ko'nikmalariga xos bo'lishi va o'rganuvchida zamonaviy dunyo ko'nikmalarini shakllantirishi ham fikri nazarda tutilgan. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish kabi 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan (Trilling & Fadel, 2009).

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirib , raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida ushbu yondashuvlarni tizimli va samarali joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bates, T. Raqamli davrda o'qitish: ta'lim va o'qitish loyihalash bo'yicha qo'llanma- Vankuver: Tony Bates Assotsiatsiyasi Ltd., 2019.
2. Trilling, B., Fadel, C. XXI asr ko'nikmalari: hayot va mehnat uchun ta'lim. – San-Fransisko: Jossey-Bass, 2009.
3. UNESCO. Ta'limni qayta ko'rib chiqish: global umumiy manfaat sari. – Parij: UNESCO nashriyoti, 2015